

Yurtimizdagi mahallalar reytingi:

Jami mahalla soni:
9309 ta

"Qizil" toifadagi:
2364 ta

"Sariq" toifadagi:
5474 ta

"Yashil" toifadagi:
1471 ta

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

17 (16470)
2022-yil, 2-aprel
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Qaynoq hayot
3-bet

"A'lo ta'til"
yangi kuch va motivatsiya

Mahallada yoshlar yetakchisi
4-5-betlar

Faqat
olg'a

Yoshlik ilhomlari
7-bet

Shahriyor
SHAVKAT



AYDARKO'L

BO'YIDA

3-betga

qarang

"BAXTLI" MAHALLASIDAGI FESTIVAL

1000 GA YAQIN YOSHLARNI QAMRAB OLDI


IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ YOSH OILALAR UCHUN GAROVSIZ / FOIZLARSIZ KREDIT

1 Mahalladagi yoshlar yetakchisining tavsiyasi bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj yangi turmush qurayotgan yosh oilalarga o'z xonadonida qo'shimcha uy-joy qurishi uchun garovsiz bank krediti ajratishga kafillik berilishi belgilangan. Bunda qanday toifadagi yosh oilalar nazarda tutilmoqda?

"Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalarning farzandlari hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yangi turmush qurgan yoshlar bu imtiyozdan foydalana oladi. Yosh oila nikohi qayd etilganiga 3 yildan oshmagan bo'lishi lozim.

2 Yosh oila a'zolarining yoshi hisobga olinadimi?

Oila a'zolari (er va xotin) 18 yoshdan katta va 30 yoshdan oshmagan bo'lishi lozim.



3 Garovsiz bank krediti qancha miqdorda ajratiladi?

Yosh oilalarga 33 million so'mgacha kredit olishda kafillik beriladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalarning farzandlari hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yangi turmush qurgan yoshlarning yakka tartibdagi xonadonida qo'shimcha uy-joy qurish uchun garovsiz kredit ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2021-yil 13-oktabrdagi 637-son qarori asos qilib olingan.

Kredit GAROVSIZ va hech qanday FOIZLARSIZ ajratiladi.



4 Imtiyozdan foydalanish uchun yosh oilaning to'lov qobiliyati qanday bo'lishi kerak? Yosh oila a'zolarining ikkisi yoki birining qandaydir daromad manbai bo'lishi kerakmi?

Yosh oila a'zolari (har ikkisi yoki bittasi) daromad manbasiga, shaxsiy yordamchi yoki dehqon xo'jaligidan, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan doimiy daromadga, shuningdek, kredit qarzini to'lov jadvaliga muvofiq har oyda to'lash uchun yetarli bo'lgan, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa daromad manbayiga ega bo'lishi talab etiladi. Bundan tashqari, yakka tartibdagi xonadonda qo'shimcha uy-joy qurish ishlari qiyamatining kamida 15 foizi miqdorida boshlang'ich badalni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

5 Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ammo kreditni to'lash imkoniga ega bo'lmagan, ya'ni muntazam ish bilan ta'minlanmagan, doimiy daromadga ega bo'lmagan yosh oilalarga imtiyozdan foydalanishi uchun yordam ko'rsatish ko'zda tutilganmi?

Bunday hollarda yosh oilaga kafillik berish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bu tipdagi garovsiz kredit qaysi muassasa kafilligi bilan va qaysi bank orqali beriladi?

"Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning yangi turmush qurgan farzandlari uchun — "Saxovat va ko'mak" jamg'armasining kafilligida;

"Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalarning yangi turmush qurgan farzandlari uchun — "Ayollar daftari" jamg'armasining kafilligida;

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yangi turmush qurgan yoshlar uchun — "Yoshlar daftari" jamg'armasining kafilligi asosida Moliya vazirligi moliyalashtiradigan bank orqali kredit beriladi.

7 Garovsiz bank krediti ajratish uchun kafillik berish qay tartibda amalga oshiriladi?


Yosh oila a'zo(lar)si "Yoshlar daftari" jamg'armasining kafilligini olish uchun mahalladagi yoshlar yetakchisiga uchrashadi. Yetakchi me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda yosh fuqaroning holatini o'rganib tavsiyanoma beradi. Mazkur tavsiyanomani "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni ko'llab-quvvatlash jamg'armasi Vashilik kengashiga yuboradi.

Murojaat belgilangan tartibda o'rganilib, hal etiladi.

ULAR ORZUSIGA YETDI

Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev joriy yil 10-mart kuni Surxondaryo viloyatiga safari chog'ida yoshlar bilan uchrashgan edi. Uchrashuvda jarqo'rg'onlik Nargiza Boymurodova oilaviy kitob o'qishga qiziqishini bildirdi. Buni eshitib xursand bo'lgan agentlik direktori tomonidan kitobsevar oilaga noutbuk hadya etilib, shaxsiy kutubxonasi uchun 100 dona kitoblar jamlanmasi tortiq etish va'da qilindi.

Shuningdek, uchrashuvda Bandixon tumani "Bag'rikeng" mahallasida yashovchi Fayzulla Mu-



sayev robototexnikaga qiziqishi, ammo unda zarur texnika vositalari yo'qligini ma'lum qilgandi. "Guliston" mahallasida yashovchi Xolnazar Jumayev esa sataroshxona ochish uchun anjomlar olishda amaliy yordam so'ragandi. Termiz shahrida yashovchi Nigora Ro'ziboyeva onasi uchun tikuv mashinasi olib berish orzusi borligini bildirdi.

Bugun ularning hammasi orzusiga yetdi. Agentlik direktori va'da qilgan kitoblar jamlanmasi, 3D printeri, tikuv mashinasi, sataroshlik anjomlari o'z egalariга topshirildi.

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

JONLI VA SAMARALI

UCHRASHUVLAR YOSHLARDA KATTA TAASSUROT QOLDIRDI



Mahallada yoshlar yetakchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish, xizmat faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilishini ta'minlash maqsadida shakllantirilgan respublika ishchi guruhi Jizzax viloyatida bo'ldi.

Viloyatda o'tkazilgan uchrashuvlarda yoshlar yetakchisining imkoniyatlari, mas'uliyati, berilgan topshiriqni to'g'ri anglay olishi, shu bilan birga ularga qay tartibda yordam berish masalasi asosiy e'tibor markazida bo'ldi.

Jumladan, Zomin tumanida bo'lib o'tgan uchrashuvda hokim yordamchilari, sektor rahbarlari hamda yoshlar yetakchilari ishchi guruh bilan suhbat olib bordi. Yoshlarning takliflari, muammolari eshitildi va zarur ko'rsatmalar berildi. Samaradorlikni oshirish uchun hokim yordamchilari, sektor rahbarlari va yetakchilar birlashib ish olib borishi muhimligi ta'kidlandi. Ish

davomida yaratilishi zarur bo'lgan shart-sharoitlar, yoshlarni qiyinab kelayotgan muammolarni bartaraf etish yo'llari haqida yoshlarning fikrlari tinglandi. Shu vaqtga qadar yoshlarning hal etilgan muammolari, berilgan ko'mak haqidagi hisobotlar eshitildi.

Yana bir uchrashuv Jizzax Yoshlar innovatsiya markazida tashkil etildi. "Street Workout"

Respublika ishchi guruhi Jizzax garnizonidagi harbiy qismda ham bo'ldi. 100 nafar yoshlar ishtirokida davom etayotgan o'n kunlik "Yosh vatanparvarlar yig'ini" qatnashchilari bilan ochiq muloqot o'tkazib, garnizonda yoshlarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Arnasoy tumani Aydarko'l bo'yidagi "Baxtili" mahallasida "Yoshlar festivali" o'tkazildi. Festivalga mahallaning 16-30-yoshdagi mingga yaqin yosh-



YANA BIR UCHRASHUV JIZZAX YOSHLAR INNOVATSIYA MARKAZIDA TASHKIL ETILDI.

maydonchasi hamda sun'iy qoplamali futbol maydoni foydalanishga topshirildi. Respublika ishchi guruhi majmuaning ochilishida ishtirok etdi. Mahalla yoshlari o'rtasida "Street workout" hamda mini-futbol bo'yicha viloyat hokimi kubogi va Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i sovrini uchun musobaqalar uyushtirildi.

lari qamrab olindi. Milliy xalq o'yinlari, futbol, voleybol, yoshlar uchun mehnat yarmakalari, osh chempionati, konsert dasturlari tashkil etildi.

Respublika komissiyasi G'allaorol tumanida yoshlar bilan Forish tog' harbiy poligoniga safar uyushtirdi. Amaliy o'q otish mashg'uloti yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Shu tariqa ishchi guruhning Jizzaxga tashrifi yakunlandi.

YANGI KUCH VA MOTIVATSIYA



"A'LO TA'TIL"

Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj, a'lochilari va iqtidorli bolalar uchun Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi "Yoshlar oromgohi"da "A'lo ta'til" oromgohi tashkil etildi. Tadbirlar Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi va "Kamalak" bolalar tashkiloti hamkorligida o'tkazildi.

Ta'tilda respublikamizning barcha hududlaridan 217 nafar bola jamlandi. Do'stlik ramzi bo'lgan sport musobaqalari ishtirokchilar uchun bir-biri bilan tanishib olish imkonini berdi. Malakali mutaxassislar o'tkazgan seminar-treninglar bolalar bilimni mustahkamlab, o'ziga bo'lgan ishonchi ortishiga turtki bo'ldi.

Dastur davomida tashkil etilgan "Kubika-rubika", "Pazl", "Xotira mashqi", "Diqqat", "Zakovat" intellektual va xotirani chaxlovchi o'yinlar bolalarning ongini rivojlantirishga omil bo'ladi. "Orientation week" loyihasi doirasida bolalar yurtimizdagi Westminster, Webstr, MDIS, TURIN, AMITY, UWED va TSUL oliy ta'lim muassasalari faoliyati bilan yaqindan tanishish

imkoniyatiga ega bo'ldilar.

"Men ham vazir bo'laman" loyihasi doirasida Ichki ishlar, AKT, Innovatsiya vazirliklari va idora rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Spikerlar rahbarlikka qadar bosib o'tgan yo'llari haqida ishtirokchilarga gapirib berdi. Muvaffaqiyatga erishgan insonlar bilan motivatsion suhbatlar uyushtirilib, yoshlar bilan muvaffaqiyat sirlari bo'lindi. Tadbirda "O'zbekistonlik" filmi namoyish etildi. Film o'quvchilarning buyuk kelajagi uchun intilishga kuch bag'ishladi.

- Bu ta'til xotiramizda uzoq vaqt saqlanib qoladi, yangi yutuqlarni egallash va yanada yaxshi o'qishga undaydi, - deydi tadbir ishtirokchisi Mastura Nabixonova.

Uch kun davom etgan loyiha so'ngida tantanali yopilish marosimi o'tkazildi. Loyihalarda faol ishtirok etgan sardor va o'quvchilar Yoshlar ishlari agentligi hamda Xalq ta'limi vazirligining diplom va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi. Xayrlashuv marosimida ishtirokchilarga do'stlik bog'ichlari topshirildi.

“

"MEN HAM VAZIR BO'LAMAN" LOYIHASI DOIRASIDA ICHKI ISHLAR, AKT, INNOVATSIYA VAZIRLIKLARI VA IDORALAR RAHBARLARI BILAN UCHRASHUVLAR O'TKAZILDI.



FAQAT OLG'A

Qurmang'azi NURG'ABULOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtakopir tumani-
dagi "Beltau" mahallasi yoshlar yetakchisi

Mahallamiz Nukus shahridan 150 kilometr-uzoqlikda — Qorateren ko'lining yoqasi, Bo'rchi-tog' tog'ining bag'rida joylashgan.

Hududimizda 1068 aholi yashaydi. Shulardan 431 nafarini yoshlar tashkil etadi. Ularning 164 nafari 16-30 yoshda. Xatlov yuritganimda bu yoshlarning 47 nafari ishsiz ekani aniqlandi. Ularning bandligini ta'minlashda mahalladagi hokim yordamchisi bilan hamkorlikda ishlayapmiz.

Mahallamizning rivojlanish drayveri asosan dehqonchilik va chorvachilik bo'lgani uchun 11 nafar ishsiz yoshga dehqonchilik qilishi uchun 0,5 sotixdan yer olib berildi. 3 nafar yosh bank krediti asosida tikuv mashinasiga ega bo'ldi. 2 nafar yoshga subsidiya asosida payvandlash uskunasi va pishiriq pishirish uchun pechka taqdim qilindi. Yana biri haydovchilik kursida o'qiyapti. Yoshlardan biriga issiqxonaga qurib berildi, yana biriga go'zallik saloni ochib berdik. Hozir 4 nafar yoshni qurilish sohasi bo'yicha 3 oylik o'quv kursiga yuborganmiz.

Yana bir yoshga o'z uyining yonida sartaorshxona ochib berdik. U hozir o'z sohasi bo'yicha o'quv kursida o'qish arafasida. Hade-may u mahallaning eng zo'r sartaorshiga aylana-di. Har kuni uni xursand holda ko'raman. Sartaorshxona mahallamiz xizmatida.

Mahallamizda "Obod qishloq" davlat dasturi asosida ko'plab ishlar qilinganini aytishim lozim. Aholi yuz foiz toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi, ko'chalarga asfalt to'shalib, tungi yoritkichlar o'rnatildi. Ta'lim muassasalari internet tarmog'iga ulandi. Aholiga xizmat ko'rsatish obyektlarining hammasi qaytadan ta'mirlandi. Yana bir yangilik — yangi hammom qurildi. Bu boshqalar uchun oddiy holdir. Ehtimol aytishga arzigulik deb bilmas, ammo bu mahalla ahlini juda quvontirdi. Avvallari bunday

joylar bizning eng katta muammoli tomonimiz edi-da. Men o'z mahallamni Yangi O'zbekistonning yangi mahallasi deb bilaman!

Mahallamizda sportga va madaniyatga qiziqishi baland yoshlar juda ko'p. Jami 16 ta ko'cha bor bo'lsa, shularning har biriga sardorlar saylab olganman. Yoshlarimizning qiziqish va xohishlarini inobatga olib kunlik rejalarimizni tuzib boramiz. Mahallamizdagi yangidan qurilgan kichik futbol maydonchasi, "Street workout" maydonchasi va maktabimizning sport zali, kompyuter xonalari, kutubxona, madaniyat markazi — hammasi yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun doim xizmatda. Mahallamiz yoshlari juda baxtli, ularda ertangi kunga ishonch va umid uyg'ondi.

Mahalla yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ko'chalar o'rtasida sport, madaniyat, tasviriy san'at, zakovat, ko'cha sporti (Street workout) turlari bo'yicha musobaqalar tashkil qildik. Bu musobaqalarga 13 ta ko'chadan jamoalar qatnashdi va 1-o'rinni "Sayat" ko'chasi jamoasi egalladi. G'oliblarning har biriga bittadan velosiped topshirildi. Bundan tashqari sportning volejbol turi bo'yicha qizlar o'rtasida sport musobaqasi tashkil etilib, 1-o'rin g'oliblariga sport formalari hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Musobaqalarni ko'chalar kesimida tashkil qilish bu sport musobaqalarining haqqoniy, qizg'in o'tishini ta'minlaydi. Bu turnirlardan so'ng mahalla yoshlarining sportga qiziqishi avvalgidan ham ortdi. Sport turnirlari uchun ajratilgan sovg'alar uchun



**HUDUDIMIZDA 1068
AHOLI YASHAYDI.
SHULARDAN 431
NAFARINI YOSHLAR
TASHKIL ETADI.
ULARNING 164 NAFARI
16-30 YOSHDA.**

“
**AHOLI YUZ FOIZ TOZA
ICHIMLIK SUVI BILAN
TA'MINLANDI, KO'CHALARGA
ASFALT TO'SHALIB,
TUNGI YORITKICHLAR
O'RNATILDI.**




Yoshlar ishlari agentligi mutasaddilariga mahalla yoshlari nomidan cheksiz minnatdorchilik bildiraman.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qoraqalpog'iston Respublikasining eng chekka - bizning "Beltau" mahallasiga kelganidan quvonchimizning cheki bo'lmadi. Ayniqsa, Prezidentimizning bilan gaplashganimda "Rahmat senga, Qurmang'azi. Alisher Sa'dullayev boshlagan yo'lda mana shunday zabardast bo'lganing uchun", degan gaplari har kuni quloqlarim ostida jaranglab, ishonch va kuch bag'ishlab turibdi. Menga shunday katta ishonch bildirilgani uchun mahalladagi barcha yoshlar dard-u tashvishi bilan yashash kundalik vazifamga aylanib qolgan. Shundan buyon har kuni ichimda bir hayqiriq eshitaman "Faqat olg'a"!

ENDI MENING ISHXONAM BOR

G'abyt **KENJEBAYEV:**




— Men har yili ishlash uchun Qozog'iston Respublikasiga ketardim. Bir kuni mahallamiz yetakchisi uyimga kelib, maqsadimni so'raganida bu yil ham chetga ishlash uchun ketmoqchiligimni aytdim. U menga "Agar ish topib bersam, mahallada qolib ishlarmiding?", deganida, to'g'risi tayinli bir ish chiqishiga ishonmadim. Ikki kundan so'ng yetakchimiz qo'ng'iroq qildi. Go'shakni oldim. "G'abyt, vaqting bo'lsa, tezda mahallaga kel", dedi u. Mahallaga borgunimcha nima gap ekanligiga juda qiziqdim.

Borsam yonida yoshi kattaroq bir kishi bor ekan. Qurmang'azi "Bu kishi hokimning mahalladagi yordamchisi bo'lad", deb tanishtirdi. "Senga yangiligimiz bor. Men sening yaxshi sataroshligingni bilaman. Xo'p desang, biz senga subsidiya asosida hamma sharoitlari bor sataroshxona ochib beramiz. Faqat sen ishlayman desang, bas!", dedi. Hech o'ylanmasdan rozi bo'ldim.

Xudoga shukr, hozir mehnatimga yarasha nasibam chiqib turibdi. Mahallaning yoshlari kechasi ham kelishadi, hech zerikmasdan mehnat qilib, mahallamiz uchun qo'ldan kelganicha ishlayapman. Rostini aytсам, xorijga borgim kelmaydi. Lekin boshqa ilojim yo'q edi. Mana, endi mening ham o'zimga yarasha ishim bor. To'g'rirog'i, ishxonam bor. Menga shunday sharoit yaratib bergani uchun Qurmang'aziga rahmat aytaman.

Yonimga ikkita shogird olganman. Qo'ldan kelganicha ularga ham hunarimni o'rgatyapman. Soch olish va sataroshlikning yangi uslublarini o'rganish uchun o'quv kursiga yozilib qo'rganman. Nasib qilsa, o'qib, o'z tajribamni orttirib, zo'r satarosh bo'lish niyatidaman.



Yoshim 19 da. Tarjimon bo'lib ishlayman. Kitoblarni chet tillardan o'zbek tiliga o'g'iraman.

Keyingi vaqtda qog'oz narxi oshgani hammaga ma'lum. Bu nashriyotlar va tarjima studiyalarining faoliyatiga zarar keltirmoqda - tarjimonlarning ham maoshiga ta'sir qilmoqda. Kitob narxi oshmoqda. Bu nafaqat nashriyotlar, balki kitobxonlarga ham noqulayliklar keltirib chiqaradi. Kitobxonlar orasida yoshlar ko'p.

Gazeta orqali davlatimizdan shu masalada nashriyotlarga yordam ko'rsatishni so'ramoqchiman. Zotan, kitob oltindan ham qimmat, xalq bilimli va har tomonlama salohiyatli bo'lishi esa davlatning yanada rivojlanishi va boy bo'lishiga xizmat qiladi.

Taklifim shuki, davlat budjetidan pul ajratilib, qog'oz muammasi hal qilinsa. Oq qog'ozlar nashriyotlarga chegirma va imtiyozlar asosida berilsa, yaxshi bo'lar edi. Toki bu muammo ta'lim va kitobxonlik sohasiga zarar yetkazmasin.

Zarina TOJIYEVA,
yosh tarjimon.

Tashkent shahri Yangihayot tumani


KO'P YILLIK ORZUMGA YETISHDIM

Nurg'azi **DINALYEV:**

— Yoshligimdan texnika haydashni yaxshi ko'rardim. Mana bugun bolalikdagi qiziqishim - haydovchilik kasbimga aylandi. Haydovchilik guvohnomasini o'qib olish uchun esa sharoitim to'g'ri kelmasdi. Har yili o'qishga xohish bo'lardi, lekin pul orttira olmasdim. Yig'gan pulim esa kamchiliklardan ortmasdi.

Bir kuni mahalla yetakchisi menga qo'ng'iroq qilib, meni haydovchilik guvohnomasini olish uchun o'qishga yuborishini aytdi. To'lov subsidiya asosida bo'lishini ta'kidladi. Juda suyundim. Mana bugun men o'qishimni yakunlash arafasida turibman. Nasib qilsa, imtihonlarni a'lo baholarga topshirib, ko'p yillardan beri erisha olmay yurgan guvohnomaga yetishaman.

Menga shunday imkoniyatlar eshigini ochib bergan mahalla yetakchisiga rahmat! Kelajakda aholining uzog'ini yaqin qiladigan haydovchi bo'lish maqsadim bor. Davlatimizning e'tibori yoshlarda ekan, bizlar ham davlat uchun har doim xizmat qilishga tayyormiz.



Prezident Shavkat Mirziyoyev 1-aprel kuni yoshlar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Sportni rivojlantirish vazirligiga mahallalardagi yoshlar yetakchilari bilan birga yil davomida 6 million nafar o'g'il-qizlarni ommaviy sport tadbirlariga qamrab olish vazifasi qo'yildi.

Mahallalarda sport infratuzilmasini yaxshilash, loyihalar qiymatini maqbullashtirib, maydonchalar tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

XALQARO FAN OLIMPIADALARIDA G'OLIB BO'LGAN YOSHLAR UCHUN QANDAY IMKONIYATLAR BOR?



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida gi PQ-4306-son qarori bilan xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan yoshlarni munosib taqdirlash belgilab qo'yilgan. Birinchi navbatda, xalqaro fan olimpiadalarida g'oliblari va ularning o'qituvchilari bazaviy hisoblash miqdorining quyidagi miqdorlaridagi bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirlanadi:

1-o'rin (oltin medal) uchun — 500 baravari (hozirda 135 000 000 so'm), o'qituvchisiga — 450 baravari (hozirda 121 500 000 so'm);

2-o'rin (kumush medal) uchun — 300 baravari (hozirda 81 000 000 so'm), o'qituvchisiga — 250 baravari (hozirda 67 500 000 so'm);

3-o'rin (bronza medal) uchun — 200 baravari (hozirda 54 000 000 so'm), o'qituvchisiga — 150 baravari (hozirda 40 500 000 so'm).

Asosiy va xalqaro olimpiada g'oliblari hamda ularning o'qituvchilariga to'lanadigan bir martalik pul mukofotlari bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Xalq ta'limi vazirligi tizimida fan olimpiadalarida bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash departamenti ham tashkil etilgan. Avvalgi yil natijalarda tizimning ham hissasi yuqori bo'ldi. Ishonamizki, bu yil xalqaro fan olimpiadalarida yigit-qizlarimiz 2021-yildagidan ham yuqori natijalarni qayd etadilar.

@alisher_sadullaev telegram kanalidan olindi.

199
IMKONIYAT

“MUSHOIRA” RESPUBLIKA TANLOVI

MAS'UL VAZIRLIK VA IDORALAR

TANLOV 3 YOSH TOIFASIDA BO'LIB O'TADI



14 YOSHDAN 19 YOSHGACHA

20 YOSHDAN 25 YOSHGACHA

26 YOSHDAN 30 YOSHGACHA

TANLOV BOSQICHLARI, O'TKAZILADIGAN MUDDATI VA JOYI

MAHALLA BOSQICHI	5-20-APREL	MAHALLADAGI Iltim muassasalari yoki madaniyat markazlarida
SEKTOR BOSQICHI	21-30-APREL	SEKTORDAGI Iltim muassasalari yoki madaniyat markazlarida
TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI	2-7-MAY	MADANIYAT markazida
HUDUDiy BOSQICHI	1-15-IYUN	YOSHLAR markazida
RESPUBLIKA BOSQICHI	21-24-IYUN	TOSHKENT SHAHRI Adiblar xiyobonida

Tanlovda 3 ta yosh toifasi bo'yicha **90 MING** dan ortiq yoshlar qamrab olinishi kutilmoqda

Tanlovda ishtirokchilar **@YOSHLARMUROJAATI BOT** orqali ro'yxatdan o'tadi

Xarajatlar hududiy **"YOSHLAR DAFTARI"** jamg'armasidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi

1 MAHALLA BOSQICHI 5-20-APREL

- Mahallada joylashgan ko'chalar kesimida tanlovda ishtirok etmoqchi bo'lgan yoshlarning arizalari 3 yosh toifasida (14-19 yosh, 20-25 yosh va 26-30 yosh) telegramdagi @yoshlarmurojaati_bot yoki mahalla yetakchisi orqali qabul qilinadi
- Tanlovni tashkil etishda mahalladagi yoshlar yetakchisiga bevosita maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, ijodiy madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi ko'maklashadi
- Mahalla bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchi (har bir yosh toifasi bo'yicha 1 nafardan) tanlovning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

2 SEKTOR BOSQICHI 21-30-APREL

- Mahalla bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchilar sektor bosqichida o'zaro bellashadi
- Sektor bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchi (har bir yosh toifasi bo'yicha 1 nafardan) tanlovning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

3 TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI 2-7-MAY

- Sektor bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchilar tuman (shahar) bosqichida o'zaro bellashadi
- Tuman (shahar) bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchi (har bir yosh toifasi bo'yicha 1 nafardan) tanlovning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

4 HUDUDiy BOSQICHI 1-15-IYUN

- Tuman (shahar) bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchilar hududiy bosqichida o'zaro bellashadilar
- Tanlovning hududiy bosqichida har bir yosh toifasi bo'yicha 1 nafardan (jami 3 nafar) ijodkorlar g'oliblikni qo'lga kiritadi
- Tanlovda g'olib bo'lgan ijodkorlar tanlovning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

5 RESPUBLIKA BOSQICHI 21-24-IYUN

- Hududiy bosqichida g'olib bo'lgan har bir yosh toifasidan 1 nafardan (jami 42 nafar) ijodkor yoshlar respublika bosqichida o'zaro bellashadi
- Tanlov Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida o'tkaziladi
- Tanlov g'oliblari gala-konsert dasturida taqdirlanadi

OLIMPIADA 8 MILLIONGA YAQIN YOSHLARNI QAMRAB OLADI SHU YIL 1-APRELDAN 5 BOSQICHLI BESH TASHABBUS OLIMPIADASIGA START BERILDI.

30-mart kuni Yoshlar ishlari agentligi "Mahallada yoshlarning bosh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha "5 tashabbus olimpiadasi" tadbirlarini o'tkazish" mavzusidagi matbuot anjumanida tadbirning bosh maqsadi, yaratilgan sharoitlar va musobaqalar shartlari haqida axborot berdi.

Anjumanda Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari Dilnoza Kattaxanova, Sportni rivojlantirish vazirligi boshqarma boshlig'i Umid Rajabov hamda Madaniyat vazirligi boshqarma boshlig'i Farhod Badalov nutq so'zladi.

Musobaqalarga respublikaning barcha hududlaridan 8 millionga yaqin yoshlarni qamrab olish re-



jalashtirilgan. Olimpiada dasturida 5 muhim tashabbusning barcha yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab olgan 8 ta musobaqa tashkil etiladi. Bir qator vazirlik va idoralar hamkorligida o'tayotgan musobaqalarda barcha yoshlar erkin ishtirok etishi mumkin.

Bahslarda xolislik va shaffoflikni ta'minlashga alohida urg'u berilgan.

Har bir mahallaga malakali trener va tajribali hakamlar birkiritilgan. Olimpiada dasturlari ochiq bo'lib, kuzatuvchilar uchun hech qanday cheklovlar qo'yilmaydi. Har bir sport turi bo'yicha respublikamizdagi barcha sport federatsiyalari hamkorligi yo'lga qo'yildi. Federatsiya vakillari Bo'stonliq va Sirdaryo tumanlarida

tajriba o'rganib, ko'nikmalar hosil qildi.

Tanlovda 1-o'rin uchun 50 million, 2-o'ringa 30 million va 3-o'ringa 20 million so'm pul mukofoti belgilangan. Olimpiadaning final bosqichida ishtirok etgan har bir yoshga 1 million so'mdan pul mukofoti taqdim etiladi.

"5 tashabbus olimpiadasi"ning yopilish marosimi 30-iyun - Yoshlar kunida bo'lib o'tadi. Tantanali tadbirda g'oliblarga mukofotlar, diplom va esdalik sovg'alar topshiriladi.

Anjumanda jurnalistlar o'z savollariga javoblar oldi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali kelgan savollar ham e'tiborsiz qoldirilmadi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV



MOTIVATSIIYA

Abduvohid HAYIT

So'nggi paytlarda "motivatsiya" so'zi tez-tez quloqqa chalinadigan bo'lib qoldi. "Motivatsiya" haqida yozish uchun esa menga bir do'stimizning yaqinda e'lon qilingan maqola tagida qoldirgan izohi "motivatsiya beradi" (sabab bo'ldi // asos bo'ldi // ruhlantirdi // ilhomlantirdi // undadi // turtki bo'ldi). Mazkur jumladan "motivatsiya" o'rinda qavs ichidagi biror so'zni qo'ysam ham tushunarli bo'lardi, lekin shu so'zni ishlatgim keldi.

Xo'sh, "motivatsiya"ni o'zbekchallashtirish mumkinmi? Faqat bir muammo bor, "motivatsiya" – bu avvaldo ilmiy atama. Atama, istiholalar ko'pincha tarjima qilinmaydi.

Ilgari tilimizda fransuzchadan rus tili orqali o'tgan "motiv" ("motif") so'zi ishlatilardi. "Motiv"ni ham adabiy atama sifatida taniganmiz, xususan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da unga shunday izoh berilgan: "motiv [fr] – syujetning tarkibiy elementi, asarning asosiy mazmuni, mavzui" (OTIL I. 1981. 472-bet). "Falonchi adib ijodida vatan motivlari", "falonchi shoir she'rlarida sevgi motivi" qabilida aytilardi.

SABAB BO'LDI // ASOS BO'LDI // RUHLANTIRDI // ILHOMLANTIRDI // UNDADI // TURTKI BO'LDI

Rus tilida esa "motiv" nisbatan kengroq ma'nolarda qo'llangan. Xususan, "Ruscha-o'zbekcha lug'at"da "motiv"ning asosiy ma'nolari sifatida: "sabab, bois, vaj" so'zlari keltirilgan. Misol: "по личным мотивом – shaxsiy sabablarga ko'ra" (RO'S. I. 1983. 573-bet). Bundan tashqari, rus tilida sovet davrida "мотивировать" ("asoslamq, dalil keltirmoq") fe'li; "мотивировка" ("asoslar, dalillar, vaj-sabablar") so'zi ham yasalgan.

"Motiv"ning fransuzcha shakli – "motif" va unga fransuzcha "Larousse" lug'atida: "nimadir qilishga, harakatga undaydigan sabab, intellektual omil" deb izoh berilgan. Umuman, "motif" lotincha: "harakatga keltirish, ko'chish" ma'nosidagi "movere" so'zidan kelib chiqqan.

Xullas, "motivatsiya" (fr. "motivation") ana shu "motiv" so'zidan yasalgan va u "Larousse" lug'atida: "1. Biror bir ish-harakatni izohlovchi, ta'minlovchi, yuzaga chiqaruvchi omil, sabablar (motivlar) majmuyi...", deb izohlangan. Albatta, "motivatsiya"ga berilgan izohlar lug'atda yana davom etadi, ammo bu atamaning asosiy o'chigichi – bu uning "motivlar majmuyi" ekanligi. Bundan tashqari, falsafa, ruhshunoslik, iqtisodiyot, tilshunoslik

va boshqa fanlarda "motivatsiya" ilmiy atama sifatida turli qo'shimcha ma'nolarga ega.

Yuqorida biz "motiv" so'zining lug'aviy ma'nosi: "harakatga keltirish, ko'chish" ekanligini aytib o'tdik, ya'ni "motiv", "motivatsiya" deganda biz shunchaki sabab, vaj, omillarni emas, balki "harakatga keltiruvchi", biror ish-harakatni yuzaga chiqarishga undovchi sabablarni tushunamiz. Deylik, sizda biror joyga sayohatga borish uchun xohish, mablag', vaqt, imkoniyat, xullas, barcha omillar bor, bu sabablar sizni harakatga undaydi, ruhlantiradi, boshqacha-roq aytganda, sizga motivatsiya beradi. Aksincha, mazkur omillar bo'lmasa, tabiiyki, motivatsiya ham bo'lmaydi. Yoki sizning uquv va bilimlaringiz imkoniyatingiz darajasidagi sohani tanlashga ilhomlantirishi (motivatsiya berishi) mumkin.

Fransuzcha gapiruvchilar oddiy so'zlashuvda "motivation"ga nisbatan ko'proq "motiver" va "motivé" so'zlarini qo'llaydi. "Motiver"

fe'li – "sabablar bilan asoslangan" ma'nosiga ega, rus tilida ham unga munosib – "мотивировать" fe'li yasalgan, ammo o'zbek tiliga bu fe'li o'zlashmagan; "motivé" so'zi esa – sifat – "asoslarga (motivatsiyaga) ega" degan ma'no bildiradi, rus tiliga bu so'z – "мотивированный" bo'lib o'tgan ("un homme motivé" – "мотивированный человек"). O'zbek tilida "motivli" yoki "motivlamoq" deyilmaydi va bunga hojat ham yo'q, yuqorida guvohi bo'ldikki, o'zbek tilida busiz ham fikrni to'laqonli ifodalash mumkin.


Alqissa, "motivatsiya" so'zi hozir tilimizga shiddat bilan kirib kelayotgan ekan, uni duch kelgan joyda emas, menimcha, ko'proq ilmiy atama sifatida ehtiyoj bo'lganda ishlatgan ma'qulroq, toki u jonli tilimizda shu paytgacha ishlatib kelgan so'zlarimizni siqib chiqarmasin.

Rahmat BOBOJON

MO'JIZA

"..agar bu xabarni beshta odamga yuborsangiz, mo'jiza sodir bo'ladi".

U SMSni o'qib bo'lgach, bir qancha odamga yubordi. Birozdan so'ng kayfiyati buzildi:



Shahriyor SHAVKAT

QASHQADARYO VILOYATI, SHAHRI-SABZ TUMANIDA TUG'ILGAN. O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI TALABASI, "MAHALLA" TELERADIOKANALI KATTA MUHARRIRI. YOSHLAR ISHLARI AGENTLUGI VA RESPUBLIKA YOSH IJODKORLAR KENGASHI TOMONIDAN O'TKAZILGAN "DUEL" IJODIY TANLOVI G'OLIBI.

YOSHLIK ILHOMLARI

TINISH

Bir kun, qumrim, istig'for o'qib, Sovrilishga yetsa-yu kuchim, Sadog'imdan o'qlarni to'kib, Gul keltirsam unda sen uchun.

Ohularni bir-bir ovutib, Qazo topdi desam shikorlar. Dasturxonga do'nsa sovutim, Xanjarimda so'ysam anorlar.

Sharbat ichsak oq novot bilan, Ko'zalarning qolsa tagi but. Qo'zilarga iltifot ila Qaytarilsa kosadagi sut.

Bor bo'yicha buralib burg'u, Bo'lsa arxar shoxiga libos. Va suhbatga joylasam urg'u, G'azallardan terib iqtibos.

Ziyofatga qo'shilsa to'rg'ay, Sen buyursang: Qani, gulla, tosh! Qo'shgilosmi azaliy sirg'ang. Qo'qigullar ayni tillaqosh.

Sen – yuragim yetgan bulutsan, Sahrosifat sitam dahrida. Ularnimi? Bahridan o'tsam, Huvillagan maydon bag'rida.

Uloqtirsa asoni asab, Chalsa oqshom oqqushlarga nay. Dubulg'amdan gulkosa yasab, Tashib tursam sarxushlarga may.

Qazo topdi desam shikorlar...

TANOSIB

Ismingni ismimning yonida yozdim, Yuzlarin berkitib kuldi tanosib. Oqligi yanayam oshdi qog'ozning, Tunga oy, Suvga soy, So'zga kuy va kiyimga tugma munosib.

Kechaman. Kunduzsan. Sahar bu – visol.

Tuproqman. Ildizsan. Ishqimiz – nihol. Yaqinman. Olissan, shunga ehtimol Ismingni ismimning yonida yozdim.

Xayolim havoda suzmaydi yengil, Na she'r bor, na ohang, turar imyanib. Dastavval so'z bo'lgan, So'z beraman, kel, Qo'shiqlar to'qiysan qishda kiygani.

Bu safar gullarni uzmayman, kechir.

Izhorim zarqog'oz ostida bo'lmas. Bu gal may o'niga jasorat ichir, Qutilmas baloga qolay, qutilmas...

Shamshirlar boshimga inmasmi ortiq?

Bu achchiq firoqdan bezdim, sirasi – Jon shirin! Diydor-chi? Undan-da totlig! Hozircha nasibam – isming shirasi.

Ismingni ismimning yonida yozgil...

LAHZA

Sen gullar rasmini chizarsan: Yaproqlaru yashil gilamlar. Barmog'ingni bir o'pmaq uchun Navbat kutar rangli qalamlar.

Men chelak rasmini chizarman, Bilasan-ku, bor hunarim shu. Men chelak rasmini chizarman, Keltirgani gullaringga suv...

MEHRLI QO'LLAR


IMKONIYATI CHEKLANGAN YOSHLAR VA BOLALAR MARKAZI





Markazning asosiy maqsadi – imkoniyati cheklangan yoshlar manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, jamiyatda teng imkoniyatlar yaratib berish, huquqiy yordam ko'rsatish hamda xayriya faoliyatini amalga oshirishdan iborat.

"MEHRLI QO'LLAR" – "Imkoniyati cheklangan yoshlar va bolalar markazi"ning eng yirik loyihasi

2021-yili "Montella Daily" savdo belgisi bilan "Mehrlı yurak" aksiyasi doirasida 88 nafar yurak porogi bilan xastalangan bolalarda jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.

 @mehrlı.uz

 mehrlı_qollar

 mehrlıqollar_1

Markaz qator grantlar g'olibi bo'lgan:

-2018-yilda Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining Davlat grantlari g'olibi

-2019-yilda O'zbekistonning Amerikadagi elchixonasi tomonidan e'lon qilingan grantlar g'olibi

-2020-yilda Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining Davlat grantlari g'olibi

-2021-yilda O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligining grantlari g'olibi

-2022-yilda Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining Davlat grantlari g'olibi



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
lqbol PARDAYEVA

Musahhihlar:
Shahribonu RAHMATOVA,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 17-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ruyxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxonalar manzili: Buyuk Turan ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-455, Adadi – 10573. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6